

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Ss.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ABDULLAYEV JAVLON NARZULLAYEVICH

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING O‘ZARO HAMKORLIGIDA
TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING TA’SIRI VA ISTIQBOLLARI

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining
siyosiy muammolari

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по политическим
наукам**

**Content of the dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Political Science**

Abdullayev Javlon Narzullayevich

Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zaro hamkorligida Turkiy Davlatlar
Tashkilotining ta’siri va istiqbollari 3

Абдуллаев Жавлон Нарзуллаевич

Влияние и перспективы Организации тюркских государств в
сотрудничестве государств Центральной Азии 30

Abdullaev Javlon Narzullaevich

The impact and prospects of the Organization of Turkic States in the
cooperation of Central Asian countries..... 68

E’lon qilingan ishlar 69

Список опубликованных работ 69

List of published works..... 69

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Ss.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

ABDULLAYEV JAVLON NARZULLAYEVICH

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING O‘ZARO HAMKORLIGIDA
TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING TA’SIRI VA ISTIQBOLLARI

23.00.04 – Xalqaro munosabatlar, jahon va mintaqa taraqqiyotining
siyosiy muammolari

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Ss 623-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuos.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sayfullayev Durbek Bahtiyarovich
tarix fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jo'rayev Sayfiddin Axmatovich
siyosiy fanlar doktori, professor

Nayimov Otabek Mardonovich
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Ss.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «__» _____soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: tsuos@info.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21. faks: (998971) 233-52-24

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «__» _____kuni tarqatildi.
(2026-yil «__» _____dagi ____ - raqamli reestr bayonnomasi).

E.S.Sultonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi v.v.b., siyosiy fanlar doktori, professor

O.I.Alimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, siyosiy fanlar falsafa doktori (PhD), dotsent

Sh.A.Yovqochev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi,
siyosiy fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi jahon siyosati va xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro tashkilotlar muhim rol o'ynamoqda. Xalqaro tashkilotlar faoliyatining jahon siyosiy maydonidagi samaradorligi munozarali masala bo'lib, akademik doiralarda bu borada turli gipotezalar va yondashuvlar mavjud. Xalqaro tashkilotlar xalqaro siyosatda davlatlardan keyin eng nufuzli ishtirokchilardan biridir. Ular xalqaro siyosatdagi mustaqil pozitsiyasi bilan davlatlarning umumiy manfaatlari yo'lida davlat xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadi va davlat tashqi siyosatini, ayniqsa, iqtisodiy va xavfsizlik masalalarini belgilab olishda muhim rol o'ynaydi.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT)ning tashkil etilishi turkiyzabon dunyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy manzarasidagi muhim o'zgarish bo'ldi. Bugungi kunda ko'plab ilmiy tadqiqotlar hamda ekspertlar tahlillarida mazkur tashkilotning mintaqaviy va xalqaro siyosatdagi o'rni, davlatlararo munosabatlarga ko'rsatayotgan ta'siri, shuningdek, uning bugungi faoliyati va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlariga oid turli ilmiy qarashlar hamda konseptual yondashuvlar ilgari surilmoqda. Tadqiqotchi olimlar va mutaxassislar fikrlarida boshqa xalqaro tashkilotlarda bo'lgani kabi biror davlatning (TDT misolida Turkiyaning) manfaatlari ustun qo'yilishi, xalqaro tashkilotlar milliy davlatlar suveren tashqi siyosatini chegaralashi, boshqa xalqaro tashkilotlar va tashqi aktorlar orasida raqobatni kuchaytirishi kabi salbiy yondashuvlar bilan birga, bugungi global tahdid va chaqiriqlarga kollektiv qarshi kurash, tashkilotga a'zo davlatlarning geosiyosiy va iqtisodiy salohiyatini oshirish hamda xavfsizligini ta'minlash va barqarorligini kuchaytirishda muhim rol o'ynashi borasida ijobiy qarashlar ham mavjud.

Shu bois, TDTga nisbatan turli qarash va fikrlarni tahlil qilish, ilmiy tadqiq etish O'zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlarining ushbu tashkilot doirasidagi faoliyati uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bugun Markaziy Osiyoda geosiyosiy raqobat kuchayib bormoqda. Dunyoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar mintaqada o'z ta'sirini oshirish borasida turli siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, energetika va transport-logistika sohalarida o'z loyihalari va tashabbuslari bilan faol tashqi siyosat olib bormoqda. Bunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlarining kollektiv tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish jarayonida uning muayyan yetakchi davlat yoki xalqaro tashkilotlarning biryozlama ta'siri ostida qolmasligini ta'minlash masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish dolzarb va strategik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlariga asoslangan tashqi siyosatni amalga oshirar ekan, ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar doirasida o'zining milliy manfaatlari hamda strategik pozitsiyalarini ilgari surish va himoya qilishga qaratilgan tashqi siyosiy strategiyalarni izchil ro'yobga chiqarmoqda. Turkiy Davlatlar Tashkilotida O'zbekiston o'z mavqeyi va manfaatlariga ega. Tashkilotning o'rni va roli haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ushbu so'zlarni ta'kidlaydi: "Tashkilotimiz doirasidagi amaliy hamkorligimiz shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'z pozitsiyalarimizni

mustahkamlash, turli tahdid va yangi xavf-xatarlarning oldini olish, aloqalarimizni yanada chuqurlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda”¹.

Mazkur dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 23-iyundagi PQ-4756-son “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan va xalqaro tashkilotlarga a‘zolikdan kelib chiqadigan majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-apreldagi PF-5400-son “O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston tashqi siyosati, xususan, Markaziy Osiyo va Turkiy Davlatlar Tashkiloti bilan strategik hamkorlik aloqalari, o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish, milliy manfaatlarni himoya qilish, tashqi siyosatni takomillashtirish va kuchaytirish borasidagi konseptual va strategik g‘oyalari tadqiqotning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi².

Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi hamkorlik tizimida Turkiy Davlatlar Tashkilotining o‘rni va ahamiyatini, uning mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ko‘rsatayotgan ijobiy va salbiy ta‘sirini kompleks tarzda tahlil qilish masalasi mahalliy olimlar tomonidan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida hozirgacha yetarli darajada o‘rganilmagan. Mavzuga yaqin yo‘nalishlarda amalga oshirilgan hamda bugungi kunda davom ettirilayotgan ilmiy izlanishlar asosan Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zaro munosabatlari, Turkiya Respublikasining tashqi siyosati va geosiyosiy strategiyasi, shuningdek, Turkiy Davlatlar Tashkilotining shakllanishi,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy Davlatlar Tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisidagi nutqi, 06.11.2024, <https://president.uz/oz/lists/view/7670>

² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 б.; Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Т.4. Т.: Ўзбекистон, 2020. – 456 б.; Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг‘ халқнинг – иши ҳам улуг‘, ҳаёти ҳам ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 400 б.; Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.2. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – 508 б.; Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.1. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.; Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati. 20.09.2023. <https://president.uz/oz/lists/view/6677>

institutsional rivojlanishi va faoliyatiga bag'ishlangan. Ushbu ilmiy manbalarni tadqiqot predmeti, metodologik yondashuvi va ilmiy xulosalaridan kelib chiqib quyidagi asosiy guruhlariga ajratish hamda tahlil qilish mumkin.

Birinchi guruhni³ Markaziy Osiyoni mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o'rgangan olimlarning ilmiy ishlari tashkil etadi. Mazkur tadqiqotlarda asosan Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi siyosati, o'zaro munosabatlari, mintaqaviy hamkorlik jarayonlari hamda mintaqaviy xavfsizlik masalalari atroflicha tahlil qilingan. Jumladan, Alimov R., Safojev S.S., Sayfullayev D.B, Sirojov O. kabi mualliflar asarlarida mintaqada davlatlararo hamkorlikning shakllanish bosqichlari, institutsional asoslari va geosiyosiy omillari tahlil qilingan bo'lsa, Jo'rayev S., Saidolimov S., Ubaydullayeva S., Bo'ronov S.M. va boshqalar mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalalarini chuqur o'rgangan. Shuningdek, Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining amaliy jihatlari ham bir qator tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Jumladan, Tolipov F., Vinokurov E.Yu., Libman A.M. hamda Mahmutova E.V. ishlarida mintaqaviy integratsiya modellari, siyosiy-iqtisodiy hamkorlik shakllari va ularning samaradorligi o'rganilgan.

Ikkinchi guruh⁴ tadqiqotlarida Turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlik va uning institutsional shakllanishi alohida ilmiy yo'nalish sifatida o'rganilgan. Xususan, Turk Kengashi (hozirgi Turkiy Davlatlar Tashkiloti) faoliyati, uning evolyutsiyasi va istiqbollari mahalliy, turk va rus olimlari tomonidan keng yoritilgan. Amirbek A., Baki P.M., Erol M.S., Yilmaz B.A. kabi mualliflar turkiy integratsiyaning tarixiy ildizlari va zamonaviy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilgan. Shuningdek, Halit Hamzaoglu, Mustofayev M., Purtaş F. Sobirov J. kabi tadqiqotchilar Turkiy Davlatlar Tashkilotining institutsional rivoji, iqtisodiy va siyosiy hamkorlikdagi o'рни hamda uning global va mintaqaviy xavfsizlikka ta'sirini o'rganishgan. Ayrim ilmiy ishlarda Turkiy Davlatlar Tashkilotining alohida yo'nalishlardagi faoliyati tahlil qilingan. Jumladan, iqtisodiy hamkorlik (Çetinkaya A.F., Demirel N.), logistika va transport (Abdullaev A.), madaniy integratsiya (Muhamedjanova S., Kadirova R. va boshqalar) hamda "yumshoq kuch" siyosati (Mamadjanov A.B., Safonkina E.A.) doirasidagi tadqiqotlar mavjud.

Uchinchi guruhni⁵ Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning turli jihatlarini tadqiq etgan ilmiy ishlar tashkil etadi. Jumladan, turk tilida Ahmet Davutoğlu, Ali Balici, Akıllı E., Aydın Mustafa, Bal İdris, Bilal Şimşir, Doğanay H., Erol Mehmet Seyfettin, Efe Çaman, Kadir Sancak, Purtaş F., Sami Kiraz, Uzge Yavuz, Hamza Yavuz, Turan M. N., Zorlu K., Geyikdagi N.V. va ingliz tilida Andreas F. and Milos V., Blank S., Blavoukos S., & Bourantonis D., Brzezinski Zb., Dankin D., Dugin A., Edward M., Gunther H., Klaus Abbink, Lars C. Moller, Megoran Nick, Sarah O'Hara, Morin J-F and Paquin J., Nalbandyan H., Stiglitz J.E. va rus tilida Avatkov V.A., Barnashov O., Melkonyan S., Mexdiyev E.T., Laumullin M., Sulemanov A.B. va boshqalarning tadqiqotlarida Turkiya tashqi siyosati, geosiyosiy maqsadlari yoritilgan. Shuningdek, Turkiyaning tashqi siyosati asoslari va mintaqaviy munosabatlarini o'rgangan mahalliy tadqiqotchilar sirasiga

³ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

⁴ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

⁵ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

Qosimov A.M., Urmanov D.R., Azimov H.Y. va boshqa olimlarni kiritishimiz mumkin.

Biroq mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik tizimida Turkiy Davlatlar Tashkilotining tutgan o'rnini, uning mintaqaviy integratsiya jarayonlariga ko'rsatayotgan tizimli ta'siri, amaliy samaradorligi hamda istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari hozirga qadar kompleks va tizimli yondashuv asosida yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mavjud ilmiy izlanishlarning aksariyati asosan mintaqaviy integratsiyaning umumiy nazariy va amaliy jihatlariga yoki Turkiy Davlatlar Tashkilotining ayrim faoliyat yo'nalishlarini tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, mazkur ikki yo'nalishning o'zaro uzviy bog'liqligi, shuningdek, tashkilotning Markaziy Osiyoda integratsion jarayonlarni jadallashtirishdagi real o'rnini va ta'siri yetarli darajada ilmiy asoslab berilmagan. Ayniqsa, TDTning MO davlatlari o'rtasidagi hamkorlikka, shuningdek, mintaqada davlatlarining ichki va tashqi siyosiy jarayonlariga ko'rsatayotgan ijobiy hamda salbiy ta'sirini kompleks baholashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada amalga oshirilmagan. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro tashkilotlarning mintaqada davlatlarining suveren tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlariga ko'rsatayotgan ta'sirini TDT misolida kompleks va tizimli yondashuv asosida tadqiq etish mazkur ilmiy muammoning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining II. "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, sud-huquq islohotlarining mushtarakligi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro hamkorligida Turkiy Davlatlar Tashkilotining ta'siri va istiqbollari ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardir:

Xalqaro tashkilotlarning diplomatik munosabatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati borasidagi nazariy qarashlarni o'rganish;

Turkiy Davlatlar Tashkilotining paydo bo'lishi va shakllanishini ochib berish;

Markaziy Osiyo davlatlari diplomatik munosabatlarining zamonaviy tarixini tahlil qilish;

Turkiy Davlatlar Tashkilotining mintaqaviy munosabatlarni takomillashtirish va rivojlantirishdagi rolga nisbatan (salbiy va ijobiy) yondashuvlarni tadqiq etish;

Markaziy Osiyo davlatlari hamkorligidagi muammolar va uni hal qilishda Turkiy Davlatlar Tashkilotining o'rnini aniqlash;

Markaziy Osiyo mintaqasi uchun global raqobatda Turkiy Davlatlar Tashkilotining imkoniyatlarini ochib berish;

Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish konsepsiyasida Turkiy Davlatlar Tashkilotining istiqbollari aniqlash;

O'zbekiston tashqi siyosatida Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida mintaqaviy hamkorlik strategiyalarini takomillashtirish masalalarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro hamkorligida xalqaro tashkilotlar belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Turkiy Davlatlar Tashkilotining faoliyati, uning Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zaro munosabatlariga ta’siri va istiqbollari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tarixiy tahlil, davrlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, SWOT, kontent va ivalent-tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Turkiy Davlatlar Tashkilotining xalqaro munosabatlar tizimining faol ishtirokchisiga aylanib borayotganligi, a’zo davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, birdamlik va “turkiy davr”ni yaratishga qaratilgan tizimli sa’y-harakatlarning mustahkamlanib borayotganligi hamda turkiy davlatlar integratsiyasi jarayonlarini jadallashtirish zarurati ushbu tashkilot doirasida neofunksional yondashuvning amaliy ifodasini aks ettirgan “selektiv integratsiya” konsepsiyasiga ko‘ra asoslab berilgan;

Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlar o‘rtasida madaniy-ilmiy hamkorlikni, o‘zaro do‘stlik va birodarlikni mustahkamlashni nazarda tutuvchi “Turkiy dunyo nigohi – 2040” konsepsiyasining ustuvor maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, Xiva shahrida “Turkiy xalqlar sivilizatsiyasi” xalqaro muzeyini ta’sis etish taklifi ishlab chiqilgan;

Jahon siyosiy maydonida Markaziy Osiyo mintaqasining o‘rni va ahamiyati tobora ortib borishi, mintaqa bilan muloqot o‘rnatishga qaratilgan “C5+” formatlarining kengayib borishi, turli darajadagi hamkorlik mexanizmlarining tashkil topishi hamda Turkiyaning Markaziy Osiyo mintaqasi bilan yaqin aloqalaridan kelib chiqqan holda, Turkiy Davlatlar Tashkiloti qoshida Markaziy Osiyo+Turkiya formatini tashkil etish zarurati aniqlangan;

Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida tashqi siyosat va xavfsizlik masalalarini milliy manfaatlarni inobatga olgan holda o‘zaro muvofiqlashtirish, transmilliy xavfsizlik tahdidlariga qarshi birgalikda samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish, aqliy markazlar o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, O‘zbekistonda Turkiy davlatlarni o‘rganish xalqaro institutini tashkil etish taklifi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy jarayonlarni tadqiq etish doirasida Turkiy Davlatlar Tashkilotining kelib chiqish sabablari, TDTning imkoniyatlari va kamchiliklari nazariy-metodologik jihatdan asoslab berilgan;

Markaziy Osiyo mintaqasining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va geosiyosiy arxitekturasi istiqbolida “Markaziy Osiyo integratsiyasi” va “turkiylik”, “turonchilik”, “panturkizm” paradigmlarini ilmiy va o‘quv adabiyotlarida qo‘llash bo‘yicha konseptual takliflar bildirilgan;

Turkiyaning qo‘llab-quvvatlashi bilan Suriya inqirozida hukumat ag‘darilishining Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy, mintaqaviy va milliy xavfsizlik jarayonlariga ta’sirini e’tiborga olgan holda, butun Markaziy Osiyo mintaqasidagi strategik va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash masalalari yuzasidan amaliy tavsiyalar berilgan;

O‘zbekiston tashqi siyosatidagi milliy manfaatlaridan kelib chiqib, tashqi siyosiy faoliyatda muvozanatni saqlashda TDTning o‘rni, TDT doirasida savdo-iqtisodiy va

logistik loyihalarda faol ishtirok etish va bu jarayonlarda tashkilotga a'zo davlatlarning teng huquqliligini ta'minlash orqali hamkorlik qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy xulosa va takliflarning respublika hamda xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan ilmiy nashrlarda hamda xorijiy ilmiy to'plamlarda e'lon qilinganligi, amaliyotga joriy etilganligi va ularning natijalari vakolatli tashkilotlar tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlanganligi bilan ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* uning materiallaridan siyosatshunoslik, jahon siyosati, xalqaro munosabatlar, mintaqaviy-siyosiy jarayonlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar masalalariga oid darslik va qo'llanmalar tayyorlashda, tashqi siyosatga doir tadqiqotlar o'tkazishda foydali bo'lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* esa tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta'lim muassasalari va sohaga oid muassasalar mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, ixtisoslashgan ta'lim muassasalarining o'quv kurslari va dasturlarida "Xalqaro tashkilotlar", "Tashqi siyosat", "Jahon siyosati", "Mintaqashunoslik", "Xalqaro xavfsizlik", "Geosiyosat" fanlarini o'qitishda hamda tegishli yo'nalishlardagi tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro hamkorligida Turkiy Davlatlar Tashkilotining ta'siri va istiqbollari bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

Turkiy Davlatlar Tashkilotining xalqaro munosabatlar tizimining faol ishtirokchisiga aylanib borayotganligi, a'zo davlatlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, birdamlik va "turkiy davr"ni yaratishga qaratilgan tizimli sa'y-harakatlarning mustahkamlanib borayotganligi hamda turkiy davlatlar integratsiyasi jarayonlarini jadallashtirish zarurati ushbu tashkilot doirasida neofunksional yondashuvning amaliy ifodasini aks ettirgan "selektiv integratsiya" konsepsiyasiga ko'ra asoslab berilgan xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining Mintaqaviy hamkorlik boshqarmasi tomonidan axborot-tahliliy hujjatlarni tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi 15/787-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, dissertatsiyadagi xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo'llashga xizmat qilgan.

Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlar o'rtasida madaniy-ilmiy hamkorlikni, o'zaro do'stlik va birodarlikni mustahkamlashni nazarda tutuvchi "Turkiy dunyo nigohi – 2040" konsepsiyasining ustuvor maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, Xiva shahrida "Turkiy xalqlar sivilizatsiyasi" xalqaro muzeyini ta'sis etish takliflaridan O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasida foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasining 2025-yilgi 21-oktyabrdagi 37-02-14/817-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, Qo'mitaning Markaziy Osiyo davlatlari

bilan do'stona xalqaro madaniy-ma'rifiy aloqalarni yanada mustahkamlash, ular bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, tarixiy xotiralarni tiklash, xalqlar o'rtasida o'zaro do'stlik va birodarlikni mustahkamlash borasidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanilgan.

Jahon siyosiy maydonida Markaziy Osiyo mintaqasining o'rni va ahamiyati tobora ortib borishi, mintqa bilan muloqot o'rnatishga qaratilgan "C5+" formatlarining kengayib borishi, turli darajadagi hamkorlik mexanizmlarining tashkil topishi hamda Turkiyaning Markaziy Osiyo mintaqasi bilan yaqin aloqalaridan kelib chiqqan holda, Turkiy Davlatlar Tashkiloti qoshida Markaziy Osiyo+Turkiya formatini tashkil etish haqidagi ilmiy qarashlardan O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkilotining Xalq diplomatiyasi markazi o'z faoliyatida foydalanilgan (*O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkiloti Xalq diplomatiyasi markazining 2025-yil 29-dekabrdagi 722/25-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, ilmiy ishdagi "turkiy xalq diplomatiyasi" konsepsiyasi asoslaridan O'zbekistonda ShHT Xalq diplomatiyasi markazining Markaziy Osiyo va Turkiy dunyo xalqlari o'rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni yanada mustahkamlash, ular bilan o'zaro manfaatli ilmiy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan loyihalarda foydalanilgan.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida tashqi siyosat va xavfsizlik masalalarini milliy manfaatlarni inobatga olgan holda o'zaro muvofiqlashtirish, transmilliy xavfsizlik tahdidlariga qarshi birgalikda samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish, aqliy markazlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, O'zbekistonda Turkiy davlatlarni o'rganish xalqaro institutini tashkil etish takliflaridan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Tarix maydoni" ko'rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (*O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Ma'rifat" ijodiy birlashmasi davlat muassasasining 2026-yil 14-yanvardagi 01-33/35-sonli ma'lumotnomasi*). Natijada, dissertatsiyadagi xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo'llashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 1 ta xalqaro darajadagi va 3 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, ulardan 7 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning tadqiqot qismi 167 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarining asosiy ustuvor yo‘nalishlari bilan mosligi, tadqiq qilinayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, dissertatsiya mavzusining tadqiqot bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan mosligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi aniqlangan. Ilmiy tadqiqot usullari, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatiya va e‘lon qilingan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Davlatlararo munosabatlarda mintaqaviy xalqaro tashkilotlarning o‘rni borasidagi nazariy yondashuvlar”** deb nomlangan birinchi bobida mintaqaviy xalqaro tashkilotlarning diplomatik hamkorlikni rivojlantirishdagi o‘rniga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilingan, Turkiy Davlatlar Tashkilotining vujudga kelishi va institutsional shakllanish jarayoni hamda Markaziy Osiyo davlatlari diplomatik aloqalarining zamonaviy rivojlanish bosqichlari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Jahon siyosati va xalqaro munosabatlar nazariyasida xalqaro tashkilotlarning global siyosiy tizimdagi o‘rni va faoliyati samaradorligi munozarali ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Shu bois akademik adabiyotlarda mazkur masalaga doir turli nazariy yondashuvlar, konsepsiyalar va ilmiy gipotezalar ilgari surilgan. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida xalqaro tashkilotlar davlatlardan keyingi eng muhim institutsional ishtirokchilar sifatida e‘tirof etiladi. Ular davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni muvofiqlashtirish, umumiy manfaatlarni ilgari surish hamda xalqaro me‘yor va tamoyillarni shakllantirish orqali davlatlarning tashqi siyosiy qarorlarini qabul qilish jarayoniga, ayniqsa, iqtisodiy hamkorlik va xalqaro xavfsizlik sohalarida sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi.

Ushbu metodologik tahlil xalqaro munosabatlar nazariyalari orasidagi asosiy munozaralar deb atash mumkin bo‘lgan neorealizm va neoliberalizm nuqtayi nazaridan amalga oshiriladi⁶. Buning sababi shundaki, ikkita asosiy nazariyaning ilmiy farazlari asosan o‘xshash bo‘lsa-da, xalqaro maydondagi aktorlar haqida turli xil yondashuvlarga ega⁷. Tadqiqotning asosiy nazariy farazi xalqaro tashkilotlarning davlatlar tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlariga ko‘rsatayotgan ta‘sirini inkor etib bo‘lmasligidan iborat. Shu nuqtai nazardan, xalqaro va mintaqaviy siyosiy jarayonlarda xalqaro tashkilotlarning o‘rni hamda ta‘sir mexanizmlarini aniqlash maqsadida neorealizm va neoliberal institutsionalizmning xalqaro tashkilotlarga oid nazariy yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinadi.

Milliy davlatlarning (Nation-states) shakllanishi va ularning xalqaro tizimda hukmronligi bilan xalqaro tashkilotlar paydo bo‘la boshladi⁸. Ularning tarixiy asosi va xalqaro siyosatdagi o‘rni 1648-yilda Yevropadagi 30 yillik urushni tugatgan

⁶ Hellmann G. & Wolf R., (1993). “Neorealism, Neoliberal Institutionalism, and the Future of NATO”, *Security Studies*, 3(1), pp. 3-43.

⁷ Baldwin A.D., (1993). “Neoliberalism, Neorealism and World Politics” David A. Baldwin (Ed.) *Neorealism and Neoliberalism: The Contemporary Debate*, New York: Columbia University Press, pp.3-25.

⁸ Rothwell C.E., (1949). “International Organization and World Politics”. *International Organization*. Vol.3, No.4.

Vestfaliya shartnomasiga borib taqaladi. Ushbu tinchlik bitimi bir tomondan dunyodagi eng qonli urushlardan birini tugatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan xalqaro tizimni tubdan o'zgartirgan "suverenitet" tushunchasini dunyo tizimiga hukmron qildi. Hududiy "milliy davlat"ning buyuk imperiyalarga qarshi g'alabasi ramzi bo'lgan ushbu tinchlik shartnomasi xalqaro maydonda davlatlarning suvereniteti va teng huquqliligini prinsipial qoidaga aylantirdi. Ko'p millatli imperiyalar birin-ketin yemirilib, ularning o'rnida ko'plab milliy davlatlar paydo bo'ldi va jahon tizimi "xalqlar tizimi" yoki "xalqaro tizim" deb atala boshlandi⁹.

Shu jihatdan, biz zamonaviy siyosiy tizimning muhim elementi bo'lgan xalqaro tashkilotlarga ko'proq 19-asrda duch kelamiz. Xalqaro konferentsiyalar va boshqa xalqaro muloqotga asoslangan o'zaro hamkorlik davlatlararo koalitsiyalarni tashkil etishga imkon berdi. Ayniqsa, 1945-1965 yillarda davlatlararo tashkilotlar soni ortdi. Xalqaro tashkilotlar sohasida, ayniqsa, xavfsizlik sohasida umuminsoniy tinchlikni saqlash bilan shug'ullanuvchi global tashkilotlar – Millatlar Ligasi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti paydo bo'lishi bilan inqilobiy rivojlanish bo'ldi¹⁰.

Globallashib borayotgan xalqaro tizim strukturasining o'zgarishi munosabati bilan u shaklan ko'p qirrali bo'lib, xalqaro tizimga yangi aktorlar kiritildi. Xalqaro tizimga kiruvchi subyektlar qatorida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar davlatlarning tashqi siyosatini shakllantirishda va diplomatik munosabatlarni rivojlantirishda samarali faoliyat ko'rsata boshladi. Xalqaro tashkilotlar tobora institutsional tuzilmalarga aylanib, kichik guruhlarini shakllantira boshladi. Shu sababli ularning faoliyati asta-sekin o'sib bordi. Ularning xalqaro siyosat me'yorlarini belgilash bilan birga, xalqaro xizmatlar ko'rsatish, xalqaro nizolarga yechim topish, xalqaro voqealarni kuzatish kabi vazifalarni egallaganligi ularning samaradorligining izchil ortib borayotganidan dalolat berdi¹¹.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlarning xalqaro siyosatga bevosita ta'siri ham turlicha namoyon bo'la boshladi. Chunki ular davlatlardan mustaqil va neytral ishtirokchilar bo'lib, xalqaro siyosat me'yorlarining xolisona belgilanishini ta'minlashadi. Ayniqsa, xalqaro siyosatning faqat qudratli davlatlar tomonidan monopoliyalanishiga yo'l qo'ymaslik vazifasini bajarishadi¹². Garchi xalqaro siyosatning asosiy kuchli davlatlari xalqaro tashkilotlarda ustun mavqega ega bo'lsalar ham, ular xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan asosiy qoidalarga ta'sir qila olmaydilar.

Realizm maktablari (klassik realizm, neorealizm) xalqaro munosabatlar bo'yicha farqli yondashuvlarga ega bo'lsalar-da, xalqaro tashkilotlar masalasida juda o'xshash fikrlar davlatlarning milliy manfaatlarini, xavfsizlik va mudofaani ta'minlash hamda o'z kuch-qudratini oshirishga qaratilganligini ilgari suradi. Xususan, Kenneth Waltz xalqaro hamkorlik qudratli davlatlarning milliy manfaatlariga parallel

⁹ Gilpin R., (1981). *War and Change in World Politics*, New York: Cambridge University Press.

¹⁰ Armstrong D., Lloyd L. & Redmond J., (2004). *International Organization in World Politics*. New York.

¹¹ Keohane R. & Nye J., (1977). *Power and Independence: World Politics in Transition*, Little Brown Company: Boston.

¹² Abbott K. W. & Snidal D., (1998). "Why States Act through Formal International Organizations", *The Journal of Conflict Resolution*, 42(1), pp.3-32.

bo'lishini va gegemon davlatlar o'z kuchini oshirish uchungina xalqaro tashkilotlarga vaqtincha kirishini aytib o'tadi¹³.

Liberalizm maktablari (klassik liberalizm, neoliberalizm) xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchilari va xalqaro siyosat subyektlari qatoriga nodavlat aktorlarni, ayniqsa, xalqaro tashkilotlarni kiritadi. Ushbu nazariya tarafdorlari xalqaro siyosatni belgilashda monopolistik qarash o'rniga, zamonaviy davlatlardan iborat xalqaro siyosat strukturasining o'zgarishi munosabati bilan plyuralistik qarashni yoqlab chiqdilar. Xalqaro kompaniyalar, biznes tashkilotlari, transmilliy koalitsiyalar va xalqaro tashkilotlar jahon siyosatini belgilovchi yangi aktorlardir. Xalqaro siyosatning ana shu yangi unsurlari tufayli davlatlar, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan bir-biriga qaram bo'lib qoldilar. Shu sababli ular yangi dunyo tizimida davlatlar nisbiy kuchga emas, balki o'zaro bog'liqlik tamoyiliga ko'ra harakat qilishini ilgari surdilar¹⁴.

Jahon siyosati va xalqaro munosabatlar nazariyasida xalqaro tashkilotlarning o'zni va ahamiyatini izohlashda **funksionalizm** hamda o'zaro bog'liqlik (**interdependence**) nazariyalari muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Xalqaro munosabatlarni o'zaro bog'liqlik hodisasi kontekstida tushuntiruvchi nazariyalarning dastlabki, keng tarqalgan va qabul qilingan namunasi funksionalistik yondashuv bo'ldi¹⁵. Funksionalistik yondashuv xalqaro tizim doirasida davlatlar o'rtasidagi kuchayib borayotgan o'zaro munosabatlarning sabab va oqibatlarini integratsiya konsepsiyasi atrofida tushuntirishga harakat qildi. Xalqaro tizimning hozirgi darajasini amerikalik olimlar Robert Keohane va Joseph Nye o'zlarining "interdependence" nazariyasida "o'zaro boq'liqlik" deb atadilar. Ular dunyo hozirda "global shaharcha"ga aylanganini, yuqorida tilga olingan xalqaro ishtirokchilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy almashinuv uzoq vaqtdan beri milliy chegaralardan oshib ketganligi va milliy chegaralar tobora yo'qolib borayotganini ta'kidlaydilar. Keohane va Nyening fikricha, xalqaro aktorlar diversifikatsiya qilinmoqda va ular o'rtasidagi kuchayib borayotgan o'zaro ta'sir o'zaro bog'liqlikni keltirib chiqaradi va dunyo ushbu o'zaro bog'liqlik tarmog'ida birlashadi. Bunday sharoitda ichki siyosat va tashqi siyosat o'rtasidagi farq o'z ahamiyatini yo'qotadi. Yana bir muhim jihat shundaki, harbiy kuch ham ushbu yodashuvga ko'ra o'z ahamiyatini yo'qotadi¹⁶.

Karl Deutschning "**xavfsizlik hamjamiyati**" (security community) nazariyasiga ko'ra, xalqaro tashkilotlar va xalqaro xavfsizlik o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lib, xalqaro tashkilotlarning vujudga kelishi va rivojlanishida xavfsizlikni ta'minlash ehtiyoji asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etiladi. Chunki davlatlararo munosabatlarda yuzaga kelayotgan urush kabi muammolarga yechim topish va hamkorlikni osonlashtirish maqsadida tashkil etilgan birinchi xalqaro tashkilotlar,

¹³ Waltz K.N., (1990). Realist Thought and Neorealist Theory. *Journal of International Affairs* 44, pp. 21–37.

¹⁴ Keohane R. & Nye J., (1977). *Power and Independence: World Politics in Transition*, Little Brown Company: Boston.

¹⁵ David Mitrany, 1948, *The Functional Approach to World Organization*. *International Affairs* (Royal Institute of International Affairs), Volume 24, Issue 3, 350-363.

¹⁶ Keohane R.O., (1984). *After Hegemony: Cooperation and Discord in the World Economy*. Princeton: Princeton University Press.

birinchi navbatda, xalqaro tizimning anarxik tabiatidan kelib chiqadigan xavfsizlik muammosini hal qilish zarurati bilan shakllangan edi¹⁷.

Xalqaro tashkilotlar borasida ana'naviy yondashuvlardan chetga chiqmasdan turib transmilliylik **“supranationality”** konsepsiyasini tushuntirish qiyin. Transmilliylik konsepsiyasi neofunksionalizm asoschisi Ernest B. Haas tomonidan eng muhim millatlararo tashkiliy tashabbus ‘suis generis’ deb atalgan Yevropa Ittifoqining (YI) rivojlanishini tushuntirish uchun ilgari surilgan¹⁸. Asoslari funksional nazariyaga borib taqaladigan ushbu konsepsiya kelajakda davlatdan tashqarida bo'lgan xalqaro tuzilma va tashkilotlarning davlatlarning suvereniteti cheklanishi bilan qanday ko'rinishga ega bo'ladi degan muhim savolga javob topishni ko'zlaydi. Chunki, aynan YI misolida transmilliy ustunlik/supranationality davlatlar tomonidan milliy suverenitetning muhim qismini qat'iy va qaytarib bo'lmas tarzda ushbu tashkilotga o'tqizish yo'li bilan tashkil etildi¹⁹.

Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishganidan so'ng mintaqa siyosiy va iqtisodiy rivojlanish, xavfsizlik va mudofaa, shuningdek, ijtimoiy-madaniy jarayonlar nuqtayi nazaridan xalqaro ahamiyatga ega geosiyosiy makonga aylandi. Natijada, mintaqa turli tashqi aktorlarning strategik manfaatlari kesishadigan hamda ko'p tomonlama raqobat namoyon bo'ladigan hudud sifatida shakllandi. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro va ayniqsa mintaqaviy tashkilotlar tashqi aktorlarning mintaqadagi manfaatlarini ilgari surish, hamkorlikni rivojlantirish hamda siyosiy ta'sirini amalga oshirishning muhim institutsional mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, MDH, SHHT, TDT, IHT va boshqa mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar Markaziy Osiyoda global raqobatning asosiy aktorlariga aylanib bormoqda.

Dissertatsiyaning **“Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish muammolari va imkoniyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Turkiy Davlatlar Tashkilotining mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi o'рни va ahamiyatiga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, tashkilot faoliyatida mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari tanqidiy baholangan hamda Markaziy Osiyo mintaqasining global geosiyosiy va geoiqtisodiy raqobat sharoitidagi manfaatlarini ta'minlashda Turkiy Davlatlar Tashkilotining imkoniyatlari kompleks tahlil etilgan.

Tarixiy-retrospektiv nuqtayi nazardan qaralganda, Turkiya va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi zamonaviy hamkorlik Sovuq urush yakunlanishi hamda Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishganidan so'ng yangi bosqichga ko'tarildi. Unga qadar mintaqaning Sobiq Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgani va Turkiya Respublikasi hamda Sovet Rossiyasi o'rtasida 1921-yilda imzolangan Moskva shartnomasi asosida shakllangan siyosiy-huquqiy tartib ikki tomonlama aloqalarning bevosita rivojlanish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab kelgan²⁰. Ushbu shartnomaga ko'ra Turkiya sovet jo'g'rofiyasida yashovchi “xorijiy turklar” bilan

¹⁷ Taliaferro J.W. (2000-2001) “Security Seeking Under Anarchy Defensive Realism”, *International Security*, 25 (3), pp. 128-161.

¹⁸ Haas E.B. (1968). *The Uniting of Europe*. Standford.

¹⁹ Rafael Leas-Arcas (2007). Theories of Supranationalism in the EU, *The Journal of Law in Society*, Vol.8:1. pp.88-112.

²⁰ Aydın M. (2001). “Kafkasya ve Orta Asya’yla İlişkiler”, (Baskın Oran, Edt.). *Türk Dış Politikası Kurtuluş Savaşından Bugüne Olgular, Belgeler, Yorumlar (Cilt 2)*. İstanbul: İletişim Yayınları: ss.366-439.

aloqalarni to'xtatishga majbur bo'lgan²¹. Bu asnoda 1921-yilda boshlangan ushbu siyosat²² Sovet ittifoqi parchalangunga qadar davom etib kelgan²³. Buning negizida, shuningdek, Turkiyaning o'sha davrlardagi, xususan 1923-1938 yillardagi, xalqaro tinchlik va xavfsizlikka hissa qo'shgan status-kvoga asoslangan tashqi siyosati yotadi²⁴. Chunki ushbu davr mobaynida Turkiya tashqi siyosatida asosiy maqsad o'laroq katta qiyinchilik bilan erishilgan mustaqillik va hududiy yaxlitlikni xalqaro status-kvo doirasida himoya qilish va saqlab qolish belgilangan edi²⁵.

Sovuq urushdan keyin xalqaro munosabatlarda tubdan o'zgarishlar va jiddiy transformatsiya yuzaga keldi. Berlin devorining qulashi hamda Sharqiy va G'arbiy Germaniyaning birlashishidan so'ng Turkiya darhol aloqa o'rnatishni boshlagan aktorlardan biri aynan "Turk dunyosi" bo'ldi²⁶. Bu borada Sovet Ittifoqi parchalanishidan avval ya'ni parchalanish bosqichiga kirgan paytda Turkiyaning mintaqaga qaratilgan harakatlari ayniqsa diqqatni tortadi²⁷. Ma'lumki, sobiq sovet o'lkalarida turkiyzabon respublikalar birin-ketin mustaqilliklarini e'lon qilib, xalqaro tizimning avtonom aktorlariga aylanib ketishdi. Uzoq yillar Sovet hukmronligi ostida bo'lgan turkiylar dunyosi milliy davlatlar qurilishi jarayoniga kirdi. Ushbu evolutsion o'zgarishlar mobaynida Turkiya ham mintaqaga nisbatan o'z siyosatini qayta ko'rib chiqdi²⁸.

Markaziy Osiyoda mustaqil turkiy davlatlarning vujudga kelishi Turkiya bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Ushbu geosiyosiy o'zgarishlar natijasida Turkmaniston, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston hamda Ozarbayjonning davlat mustaqilligiga erishishi Turkiya tashqi siyosatida yangi strategik imkoniyat sifatida baholandi. Til, tarix, madaniyat va qisman diniy mushtaraklik ushbu davlatlar bilan ko'p qirrali hamkorlikni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etildi. Shu sababali Anqara o'z tashqi siyosatiga yangi tus bergan holda turkiy davlatlar bilan munosabatlarni idealist va milliy panturkist tashqi siyosat yo'li bilan birinchi o'ringa qo'ydi. Ushbu intilishlarni hattoki amerikalik davlat arbobi Henry Kissinger "Adriatik dengizi va Buyuk Xitoy devori o'rtasida cho'zilgan turkiy dunyo" hududi o'laroq ifodalab, o'sha paytdagi Turkiya prezidenti Turgut O'zal "Turkiy asr" yangi atamasi bilan ham tavsifladi²⁹.

Shuni aytish kerakki, "turkiy dunyo" diskursi geosiyosiy nuqtayi nazardan barcha turkiy davlatlarni qamrab oluvchi geografiya, shuningdek, ustida ishlanishi kerak bo'lgan ideal va bu idealni amalga oshirish uchun harakat talab qiladigan

²¹ Hamza Eroğlu (1990). *Türk İnkılap Tarihi*, Ankara, Savaş Yayınları, s.181.

²² Mehmet Gönübol – Cem Sar (1996). "1919-1938 Yılları Arasında Türk Dış Politikası", Mehmet Gönübol (der.), *Olaylarla Türk Dış Politikası (1919-1995)*, Siyasal Kitabevi, Ankara, s. 28.

²³ Armaoğlu Fahir (2003). *20. Yüzyıl Siyasi Tarihi (Cilt 1-2: 1914-1995)*, İstanbul, Alkım Yayınevi, s.335.

²⁴ Toklu, Vefa (2006). *Uluslararası İlişkiler*, Ankara, İmaj Yayınevi, s.443.

²⁵ Veli Yılmaz (1998). *Siyasi Tarih*, İstanbul, Harp Akademileri Basım Evi, ss 346-348.

²⁶ Kenan Dağci, "Turkey's New Geopolitical Imagination and EU Membership", (ed.) Kenan DAĞCI and Gül Tuba DAĞCI, *Rethinking Turkey – EU Relations*, Münster, MV Wissenschaft, 2007, p.41

²⁷ Ahmet DAVUTOĞLU, 2001, *Stratejik Derinlik Türkiye'nin Uluslararası Konumu*, İstanbul, Küre Yayınları, s.72

²⁸ İdris BAL, 2004, "Soğuk Savaş Sonrası Türk Dış Politikası İçin Türk Cumhuriyetleri'nin Önemi", 21.Yüzyılda Türk Dış Politikası, (Der.) İdris BAL, Ankara, Nobel Yayınları, s.370

²⁹ Efe ÇAMAN, "Kafkasya ve Orta Asya'da Türkiye'nin Yeni Bölgesel Politikası: Dış Politikanın Yönelim Sorunsalı", Avrasya Dosyası, cilt:12, sayı:1, Nisan 2006, s.187

tushuncha sifatida ta'riflanadi³⁰. Geografik nuqtayi nazardan kelib chiqib, g'arbda Kosovo va Chernogoriya, sharqda Mog'ulistonning Turkiy dunyo chegaralari ichida ekanligi ta'kidlanadi. Ushbu geografik chegarada esa 7 ta mustaqil turkiy davlat va Sharqiy Turkiston, Tatariston, Chuvash, Boshqirdiston, Saxa-Yakutiya, Oltoy, Karachay, Balkar kabi yarim avtonom viloyatlar mavjud. Boshqa tomondan shuni ta'kidlash kerakki, mazkur 7 mustaqil davlat turk dunyosi deb ataladigan jo'g'rofiyaning atigi 43,7% ni egallaydi³¹. Bugungi kunda turkiy dunyo 10 million kvadrat kilometr maydonda yashovchi 300 million aholini o'z ichiga oladi³².

Klassik geosiyosiy nazariyalarda Yevroosiyo qit'asi global geosiyosiy makonning muhim qismi sifatida baholanadi. Ayrim geosiyosiy konsepsiyalarda Markaziy Osiyo mintaqasi Yevroosiyaning strategik markazi sifatida talqin qilinadi. Mintaqadagi besh mustaqil davlatning to'rttasi — Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Turkmaniston turkiy davlatlar hisoblanadi³³. Sharqiy Turkiston esa Markaziy Osiyaning sharqiy qismida joylashgan tarixiy-geografik hudud bo'lib, janubda Qorakorum va Kunlun, shimoli-sharqda esa Oltoy tog' tizmalari bilan tutashadi. Ayrim tarixchilar va turkologlarning fikriga ko'ra, turkiy xalqlarning etnogenezi hamda dastlabki shakllanish jarayonlari Sharqiy Turkiston va G'arbiy Turkiston hududlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, mazkur hududlar turkiy sivilizatsiyaning qadimiy markazlaridan biri sifatida e'tirof etiladi³⁴.

Binobarin, jiddiy geosiyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan turk davlatlari o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik tanlov emas, balki zaruratga aylandi. Mustaqillikdan keyingi davrda tilga olingan integratsiya va hamkorlik yo'lidagi birinchi qadam Turkiy tilli davlatlar sammitlari jarayonining boshlanishi bo'ldi. Turkiy davlatlarning birlashishiga zamin yaratgan bu uchrashuvlarning 2009-yilda institutsional xarakterga ega bo'lishi, aloqalarni chuqurlashtirish va Turkiy dunyo idrokini kuchaytirish nuqtayi nazaridan muhim bir burilish nuqtasi bo'ldi. A'zolari va kuzatuvchilari bilan umumiy aholisi 170 milliondan oshgan Turkiy Davlatlar Tashkilotining (TDT) mavjudligi turkiy dunyoning jismoniy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy kuchini yanada aniq institutsional shaklga keltirdi³⁵.

Shunday qilib, tashkilotning umumiy konsepti madaniy hamkorlikdan, iqtisodiy-moliyaviy va xavfsizlik borasida hamkorlik darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, yaqin kunlarda mudofaa borasida hamkorlik darajasiga ham o'tish mumkinligi ilgari surilmoqda. Bu Ozarbayjonning Ikkinchi Tog'li Qorabog' g'alabasidan so'ng Turkiy Davlatlar Tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi davlatlar Milliy xavfsizlik kengashlari rahbarlarining 2022-yilda bo'lib o'tgan Sammitida umumiy xavfsizlik istiqbolini ishlab chiqish kontekstida e'tiborga molik qadam sifatida baholandi.

³⁰ Turan, M. N. (2020). "Türk modeli" ve "Türk dünyası" Söylemlerinin Jeopolitiği: 1990'lar Türkiye'sine Bir Bakış. Türkiye Siyaset Bilimi Dergisi, 3(2), 185-204.

³¹ Erol, M. S. (2018). Avrasya'nın Değişen Jeopolitiğinde Türk Dünyası ve Türkiye: Nasıl Bir Gelecek? Yerelden Küresele: Türkiye - Türk Dünyası İlişkilerinin Dünü, Bugünü ve Yarını, 11-12 Ekim 2018, TESAM III. Uluslararası Sosyal Bilimler Kongresi Yayını, İstanbul, 326-330.

³² Zorlu, K. (2019). Türk Dünyası Güncesi. 1.Baskı, İstanbul: Ötüken.s.10

³³ Külebi, A. (2006). Türklüğün Jeopolitiği Umut Doludur. Türk Yurdu, 222, <https://www.turkyurdu.com.tr/yazar-yazi.php?id=3927>.

³⁴ Doğanay, H. (1995). Türk Dünyası'nın Siyasi Sınırları. Atatürk Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi, 3, 23-56.

³⁵ Türk Devletleri Teşkilatı. (2022). Türk devletleri teşkilatı dokuzuncu zirvesi Semerkant bildirisi. https://www.turkicstates.org/assets/pdf/temel_belgeler/9-zirve-bildirisi-16-tr.pdf

TDT doirasida mudofaa hamkorligini eng faol qo'llab-quvvatlaydigan davlatlardan biri Ozarbayjondir. Prezident Aliyevning so'zlariga ko'ra, urushlar va mojaro xavfi mavjud bo'lgan sharoitda xavfsizlikning asosiy kafolati bu mudofaa salohiyatidir. Shu sababli a'zo davlatlar o'rtasida xavfsizlik, mudofaa va mudofaa sanoatida hamkorlikni yanada kengaytirish lozim³⁶. Misol tariqasida Qozog'iston va Turkiya o'rtasida Turkiyaning uchuvchisiz uchish qurilmalarini Qozog'istonda ishlab chiqarish bo'yicha kelishuvga erishildi. Shuningdek, Turkiya mudofaa sanoati kompaniyalari ASELSAN va ROKETSAN Ozarbayjonda faoliyat yuritmoqda va Turkiya dronlari Ozarbayjon, Qirg'iziston va O'zbekiston mudofaa tizimiga integratsiya qilinmoqda. Turkiyaning uchuvchisiz uchish qurilmalari mintaqadagi mojaralarda samarali ishlatilmoqda, bu esa TDTning xavfsizlik va strategik ahamiyatini oshiradi. TDT doirasida xavfsizlik va mudofaa sohasidagi hamkorlikning chuqurlashuvi Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur jarayonda a'zo davlatlar o'zaro ishonchni mustahkamlash, xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va strategik muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga intilmoqda. Shu bilan birga, mintaqadagi boshqa yirik aktorlar manfaatlari va mavjud geosiyosiy muvozanatni hisobga olish ushbu hamkorlikning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tashkilotning xavfsizlik va mudofaa yo'nalishidagi faoliyati mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda uning strategik ahamiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi qaltis geosiyosiy jarayonlarda Markaziy Osiyo mintaqasining xavfsizligi, harbiy salohiyati, uning zamon talablariga mos modernizatsiyalashganligi nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatlarning yashovchanligi va xalqining tinchligi mamlakatlarning harbiy-siyosiy mavqeyiga bog'liqligi yanada ortib bormoqda. Shunday bir sharoitda TDT Markaziy Osiyo davlatlari uchun zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashda mudofaa qobiliyatlarini rivojlantirishda, o'zaro bilim va tajriba almashishda muhim rol o'ynaydi. Davlatlar kuchli bo'lishi uchun bugungi sharoitda ularga kuchli armiya kerak. Kuchli davlat va kuchli armiya tengligiga ilg'or texnologiyalar orqali erishiladi. Sovet Ittifoqining texnologik qoloqligi va mudofaa sanoatidagi nomutanosiblik, harbiy tajribaning yo'qligi kabi asosiy muammolari armiyaning eng asosiy kamchiliklari edi³⁷. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida harbiy texnika, ehtiyot qismlar va mudofaa sanoati ishlab chiqarishi bo'yicha Moskvaga qaramlik Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston va Turkmaniston mustaqillikka erishganidan so'ng ularning qurolli kuchlarini modernizatsiya qilish jarayonida jiddiy muammolarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, eskirgan sovet harbiy texnikasini yangilash hamda zamonaviy mudofaa texnologiyalariga o'tish ushbu davlatlar oldidagi dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Bunday vaziyatda NATO standartlari asosida zamonaviy qurol-aslaha va tajribaga ega Turkiya bilan hamkorlik muhim rol o'ynadi³⁸.

Turkiyaning Baykar, ASELSAN, TUSAŞ, ROKETSAN va HAVELSAN kabi kompaniyalari uchuvchisiz uchoqlar texnologiyalari, zirhli transport vositalari, havo

³⁶ Vasif Huseynov (2024). The Organization of Turkic States Seeks Defense Cooperation. Eurasia Daily Monitor Volume: 21 Issue: 35.

³⁷ Kocatepe Ö. F. Türk Devletleri Teşkilatı: Politik ve Askeri İş Birliği. Nobel, 1. Basım, 2022, s.8.

³⁸ Tarçin U., Türk Devletleri Teşkilatı'nda Askeri İş Birliği: Stratejik Bir Perspektif. MUTAD, 2025, ss.244–267.

mudofaa tizimlari va aqlli o'q-dorilar ishlab chiqarishi bilan butun dunyoda tan olinmoqda. Turkiyaning salohiyati TDT doirasida mudofaa sanoati sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish uchun vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, Turkiyaning uchuvchisiz uchoqlari (SIHA)ni ishlatadigan TDT davlatlari:³⁹

- Ozarbayjon: Bayraktar TB2 SIHA sotib oldi va ulardan faol foydalanmoqda.
- Qirg'iziston: Bayraktar TB2, Akinji, Aksungur va Anka SIHAlarini o'z inventariga qo'shdi.
- Turkmaniston: Turkiyadan Bayraktar TB2 SIHA sotib oldi.
- Qozog'iston: Anka SIHAlarni xarid qildi va bu boradagi hamkorlikni davom ettirmoqda.
- O'zbekiston: Bayraktar TB2 SIHA sotib oldi va bu boradagi hamkorlikni davom ettirmoqda.

Mintaqaviy xavfsizlik dinamikasi TDTga a'zo mamlakatlar o'rtasida aniq va o'zaro bog'liq bo'lgan "xavfsizlik ehtiyojlarini" ochib bermoqda. Quyida keltirilgan ushbu ehtiyojlar hamkorlikning yanada samarali mexanizmi zarurligini ta'kidlaydi:⁴⁰

a. Mudofaa va xavfsizlik sohasida hamkorlik: umumiy xavfsizlik tahdidlariga qarshi birgalikda harakat qilish qobiliyati TDT mamlakatlari uchun ustuvor hisoblanadi.

b. Chegara xavfsizligini mustahkamlash: chegara xavfsizligi mintaqaviy barqarorlik va milliy xavfsizlik uchun juda muhimdir.

c. Energetika va infratuzilma xavfsizligi: Mintaqadagi energiya, quvurlar va boshqa muhim infratuzilmalarni himoya qilish nafaqat iqtisodiy manfaatlar, balki strategik mustaqillik uchun ham muhim ahamiyatga ega.

d. Kiberxavfsizlik va gibril urush salohiyati: TDTga a'zo mamlakatlarning kiberhujumlarga qarshi chidamliligini oshirish va gibril tahdidlarga qarshi kurashish muhimdir.

e. Tinchlikni saqlash va insonparvarlik yordami salohiyati: mintaqadagi mojarolar va inqirozlarga (zilzilalar, suv toshqinlari, o'rmon yong'inlari va boshqalar) javob berish uchun tinchlikparvar kuchlar yoki gumanitar yordam mexanizmini yaratish ko'rib chiqilishi kerak.

f. Mudofaa sanoati hamkorligi: TDTga a'zo davlatlar tashqi qaramlikni kamaytirish va zamonaviy tahdidlarga qarshi yanada samarali mudofaa vositalarini ishlab chiqish uchun mudofaa sanoati sohasida hamkorlik qilish zarurligini his qilmoqda.

g. O'zaro muvofiqlik, qo'shma tayyorgarlik va harakatchanlik: TDTga a'zo kuchlarning uyg'un ishlashi uchun qo'shma mashqlar va mashg'ulotlar juda muhimdir.

Turkiyalik tadqiqotchi O'mer Faruk Ko'jatepening yozishicha, Turkiya va turkiy davlatlar o'rtasidagi harbiy hamkorlik nafaqat davlatlar qurolli kuchlarini mustahkamlash, balki mintaqada tinchlik va xavfsizlikni o'rnatishda ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, Sovet Ittifoqi parchalanganidan beri davom etib kelayotgan hududiy nizolar va chegara mojarolari uchun turli xil yangi yechimlarni

³⁹ BBC News Türkçe, 'Orta Asya ülkelerinde Türk şirketlerin İHA ve SIHA'larına ilgi artıyor', 19 Ocak 2024, <https://www.bbc.com/turkce/articles/c9x2xz2nnjlo>

⁴⁰ Tarçın U., Türk Devletleri Teşkilatı'nda Askeri İş Birliği: Stratejik Bir Perspektif, s. 247.

ishlab chiqish juda muhimdir. Mintaqaviy tinchlik, xavfsizlik va hamkorlikni oʻrnatish maqsadida tashkil etilgan Moskva markazli siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik tashkilotlari – Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi (MDH), Kollektiv Xavfsizlik Shartnomasi Tashkiloti (OʻDKB) va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (EbpA3ƎC) hozirgacha mavjud muammolarga doimiy yechim ishlab chiqa olmadi. Xuddi shu narsa YEXHT kabi Gʻarbda joylashgan tashkilotlarga ham tegishli⁴¹. Xususan, Rossiya Federatsiyasining 2022-yildan boshlab Ukrainada olib borayotgan harbiy harakatlari hamda ularning mintaqaviy xavfsizlik muhitiga taʼsiri Moskva boshchiligidagi siyosiy va xavfsizlik institutlarining samaradorligi hamda ishonchliligiga nisbatan ayrim davlatlar tomonidan qayta baholash jarayonlarini kuchaytirdi.

Shuningdek, Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) mintaqaviy integratsiya, hamkorlik va oʻzaro manfaatdorlikni rivojlantirishga qaratilgan istiqbolli institutsional tuzilmalardan biri sifatida baholanayotgan boʻlsa-da, uning faoliyati, institutsional tabiati va rivojlanish istiqbollari xalqaro siyosiy hamda akademik doiralarda turlicha yondashuv va bahs-munozaralarga sabab boʻlmoqda. Xususan, ayrim tadqiqotchilar va siyosiy tahlilchilar tashkilotning geosiyosiy oʻrni, ichki institutsional dinamikasi hamda Turkiyaning Markaziy Osiyoga nisbatan tashqi siyosati bilan oʻzaro bogʻliqligi yuzasidan turli ilmiy qarashlarni ilgari surmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, TDT faoliyati Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Rossiya kabi yirik geosiyosiy aktorlarning mintaqadagi manfaatlari, shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining koʻp vektorli tashqi siyosati bilan oʻzaro uygʻunligi va taʼsir mexanizmlarini ilmiy asosda tahlil qilishni taqozo etadi.

Geosiyosiy nuqtayi nazardan Turkiy dunyo Rossiya, Xitoy va AQSh kabi global kuchlar oʻrtasidagi ziddiyat makonida joylashgan. Shuning uchun Turkiy dunyo ishtirokchilarining samarali va institutsional harakatlari mintaqaviy va global barqarorlik uchun juda muhimdir. Bu esa Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarini muvozanatli tashqi siyosat yuritishga undaydi. Rossiya, Xitoy, AQSh, Hindiston, Pokiston, Eron va Arab davlatlari bilan siyosiy munosabatlarida TDT “muvozanat tarozisi” vazifasini bajarishi mumkin. Bu, ayniqsa, TDT bilan harbiy-siyosiy hamkorlik va mudofaa sanoatini modernizatsiya qilish orqali yanada barqarorlik kasb etishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Markaziy Osiyo davlatlarining oʻzaro hamkorligida Turkiy Davlatlar Tashkilotining istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish konsepsiyasida Turkiy Davlatlar Tashkilotining tutgan oʻrni va istiqbollari tahlil qilingan. Shuningdek, Oʻzbekiston tashqi siyosatida mazkur tashkilot doirasida mintaqaviy hamkorlik strategiyalarini takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlari hamda amaliy mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Darhaqiqat, mintaqa davlatlari oʻrtasidagi iqtisodiy integratsiya va hamkorlikni oʻrnatishga qaratilgan ilk qadamlar hatto MDH tashkil topishidan oldin kuzatilgan. Respublika rahbarlari Orol muammosi, suv taqsimoti kabi mavjud muammolarni hal etish maqsadida oʻzaro uchrashuvlar oʻtkazishgan. Bir qator tahlilchilar taʼbiri bilan

⁴¹ Kocatepe Ö. F. Türk Devletleri Teşkilati: Politik ve Askeri İş Birliği. Nobel, 1. Basım, 2022, s.10.

aytganda, “bu davrda mintaqaviy muammolar va Moskvadan kelib chiqadigan masalalarga yechim izlash uchun Markaziy Osiyo davlat rahbarlari o‘rtasida sammit uchrashuvlari o‘tkazish odatiy hol edi”⁴².

Xususan, 1990-yilning iyun oyida Olmaotada bo‘lib o‘tgan Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston rahbarlari uchrashuvida tomonlar iqtisodiy, ilmiy-texnik va madaniy hamkorlik borasida Shartnoma imzolashdi. Umuman, iqtisodiy masalalarga e‘tibor qaratilgan bu yig‘ilish mintaqa davlatlaring birinchi marta Moskvadan mustaqil ravishda siyosat yurita boshlagani uchun juda muhim edi. Bundan tashqari 1991-yilning yanvar oyida Toshkentda bo‘lib o‘tgan respublika rahbarlari uchrashuvida mintaqa davlatlarining iqtisodiy masalariga oid, hususan, milliy iqtisodiyotlarning strukturaviy salohiyatini inobatga olgan holda mintaqaviy bozorni tovarlar bilan ta‘minlash muammolari borasida bir qancha qarorlar qabul qilindi⁴³.

Mintaqa davlatlarining keyingi yig‘ilishi Sovet ittifoqi parchalanganidan keyin Ashxobodda bo‘lib o‘tdi⁴⁴. Bu yig‘ilishda ilk bor Markaziy Osiyo ittifoqi va Turkiy ittifoqni tashkil etish haqidagi g‘oyalar ilgari surdi⁴⁵. Natijada, keyinchalik prezidentlar o‘tkazgan sammitlar asosida Markaziy Osiyo iqtisodiy ittifoqi tuzildi. 1993-yilda Minsk sammitida Qozog‘iston prezidenti Nazarboyev birinchi marta Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi g‘oyasini boshqa yetakchilar bilan baham ko‘rdi⁴⁶. Qozoq yevroosiyoligi deb atalgan bu yondashuv o‘sha davrda Qozog‘iston tashqi siyosatining juda muhim konsepsiyasiga aylangan edi. Lekin buni Qirg‘izistondan tashqari Markaziy Osiyo mintaqasining boshqa davlat rahbarlari salbiy qabul qildi.

Jumladan, O‘zbekiston rahbari Islom Karimov bu g‘oyaga mutlaqo qarshi ekanligini, Markaziy Osiyo integratsiyasining yevroosiyolik yo‘nalishida rivojlanishi mintaqa davlatlarining mustaqilligiga zarar yetkazishini ta‘kidlagan edi. Shu sababli sobiq Prezident I.Karimov 1995-yilda “Turkiston – umumiy uyimiz” go‘yasini o‘zbek jamoatchiligi va siyosatchilariga taqdim etdi⁴⁷. Keyinchalik esa sammit yig‘ilishlarida ushbu loyiha kun tartibiga olib chiqildi. O‘zbekiston Prezidenti g‘oyasidan ko‘zlangan asosiy maqsad Rossiyani Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiya va birlashuv jarayonidan chetlashtirish va bor-yo‘g‘i beshta davlatdan iborat ittifoq tuzish edi. Chunki u Rossiyani mintaqa yetakchisi sifatida qabul qilishni istamas edi⁴⁸.

Umuman olganda, yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lishi bilan integratsiyaning “birinchi bosqichi” doirasida turli ichki va tashqi siyosiy konsepsiyalar amalga oshirila boshlandi, ayniqsa, milliy bozorlarning shakllanishida davlatlaro hamkorlik va mintaqaviy integratsiyaga yangi strategik yondashuvlar

⁴² Karasar, Hasan Ali, Kuşumbayev, Sanat K. Türkistan Bütünleşmesi. – Ankara: Ötüken Yayınevi, 2009.

⁴³ Gleason, G. (2001): Inter-State Cooperation in Central Asia: from the CIS to the Shanghai Forum. *Europe-Asia Studies* 53(7): 1077-1095

⁴⁴ Karasar, Hasan Ali, Kuşumbayev, Sanat K. Türkistan Bütünleşmesi. – Ankara: Ötüken Yayınevi, 2009.

⁴⁵ Саидазимова, Г. Интеграция в Центральной Азии: реалии, вызовы, возможности // *Центральная Азия и Кавказ*. – 2000. – (3) 88. – Режим доступа: <http://www.ca-c.org/journal/cac09-2000/10.Saidazim.shtml>.

⁴⁶ Sadri, H.A. Integration in Central Asia: From theory to policy // *Central Asian Survey*. – 2007. – 16(4). – pp. 573-586.

⁴⁷ Yüce, M. and Kalkan, İ. (2007). “Orta Asya Devletler Birliği Fikrinin Tarihsel Gelişimi ve İkinci Türkistan Forumu”, *Akademik Bakış*, Sayı: 1, Ocak, pp. 1-19.

⁴⁸ Schneider, W. (2004). “Regional Cooperation in Central Asia: Vision and Reality”, *International Relations and Geopolitics*, No: 2, 2004, p. 19.

zarurati yuzaga keldi⁴⁹. Bu o'z o'rnida mintaqaviy davlatlari o'rtasida hamkorlik borasida umumiy intilishlar mavjudligini ko'rsatib, garchi o'sha payt Turkmaniston o'z neytral pozitsiyasi bilan bundan xolis bo'lsa-da, Markaziy Osiyoda aynan 1990-yillar boshidan mintaqaviy integratsiyalashuvning ilk qadamlari ya'ni aniq huquqiy va institutsional mexanizmlari ishlab chiqildi⁵⁰.

O'zbekistonning TDTga to'laqonli a'zoliqi natijasida ushbu tashkilot faoliyatida transformatsion o'zgarishlar yuzaga keldi va o'ziga xos yangilanish, funksional jihatdan faollashuv va jiddiy ma'noda oldinga siljish kuzatildi. Turkiy davlatlar o'rtasidagi integratsiya jarayonlarining yangi institutsional bosqichga chiqishi tashkilot doirasida a'zo davlatlarning geoiqtisodiy va strategik jihatdan "win-win" tamoyillariga asoslangan muhim siyosiy qadam sifatida baholandi. Mamlakatimizning "turkiy dunyo"ga yo'nalik aktiv va pragmatik pozitsiyasi nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasida turkiy davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning yanada yaqinlashuvi va rivojlanishiga, balki Ozarbayjon va Turkiya orqali Kavkaz mintaqasi va Yevropa bilan bog'lovchi mintaqalararo hamkorlik platformasining shakllanishiga ham asosiy turtki bo'ldi.

Binobarin, tashkilot doirasida hamkorlikning faollashuvi xalqaro hamjamiyat, xususan, Markaziy Osiyoga geografik jihatdan yaqin hamda mintaqada muayyan geosiyosiy manfaat va geostrategik ta'sirga ega bo'lgan davlatlar tomonidan ham katta qiziqish bilan kuzatilmoqda. Mazkur jarayon ushbu davlatlarning siyosiy qaror qabul qiluvchi doiralari, akademik hamjamiyati va ekspert-tahliliy markazlarida TDTning mintaqaviy va xalqaro siyosatdagi o'rni, rivojlanish istiqbollari hamda potensial ta'siriga doir turli ilmiy va siyosiy yondashuvlarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, TDTning kelajakdagi rivojlanish trayektoriyasi, uning institutsional salohiyati, shuningdek, a'zo davlatlarning tashkilot doirasidagi strategik manfaatlari va ustuvor yo'nalishlariga oid turli, ba'zan esa o'zaro farqlanuvchi akademik va ekspert-tahliliy qarashlar ilgari surilmoqda.

O'zbekistonning Turkiy Davlatlar Tashkilotidagi ishtiroki turkiy davlatlar bilan nafaqat madaniy-gumanitar aloqalarni, balki, avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, mamlakatning pragmatik va ochiq tashqi siyosati doirasida yangi iqtisodiy imkoniyatlar hamda rivojlanish yo'nalishlarini izlash va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan muhim strategik qadam sifatida baholanishi mumkin. Buning amaliy ifodalaridan biri sifatida 2024-yil 5-oktabr kuni Toshkent shahrida Turkiy davlatlarning Ishbilarmonlar kengashi hamda Investitsiya forumi doirasida o'tkazilgan tadbirlarni qayd etish mumkin. Mazkur tadbirlar TDT doirasida O'zbekistonning savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan tashabbuslarini amaliy jihatdan namoyon etib, mamlakatning tashkilot doirasidagi iqtisodiy diplomatiya yo'nalishidagi faolligini kuchaytirayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev Baku sammitidagi nutqida oxirgi 3 yil mobaynida tashkilot a'zo davlatlari o'rtasidagi savdo hajmi sal

⁴⁹ Erol, Seyfettin ve Mehmet Şahin (2013) "Bağımsızlıklarının 20. Yılında Orta Asya Ve Kafkasya'daki Türk Cumhuriyetlerinin Entegrasyon Süreci (1991 – 2011)", Karadeniz Araştırmaları, Sayı 37, ss.111-136.

⁵⁰ Niklas Wirminghaus, "Ephemeral Regionalism: The Proliferation of (Failed) Regional Integration Initiatives in Post-Soviet Eurasia", Roads to Regionalism: Genesis, Design, and Effects of Regional Organizations, Ed. by Tanja A. Börzel, Lukas Goltermann, Kai Striebing, London and New York, Routledge, 2016, p.25.

kam ikki barobarga oshgani, shuningdek, mingdan ortiq qo'shma korxonalar ochilgani haqida to'xtalib o'tdi⁵¹. Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan takliflar tahlili ham asosan iqtisodiy masalalarning ustivorligini ko'rsatadi. Xususan, ushbu takliflar ishbilarmonlar o'rtasidagi aloqarni rivojlantirish, qo'shma texnoparklar barpo etish, innovatsiyon start-up loyihalar ishlab chiqish va turkiy davlatlarining yagona investitsion fondi va savdo uylarini tashkillashtirishga qaratilgan takliflarni qamraydi. Bundan tashqari, mintaqalararo yirik transport-logistik loyihalarining ishga tushishi⁵² O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, bu qadam Yevropa, Xitoy va Janubiy Osiyo bozorlariga chiqishda keng imkoniyatlar yaratishiga umid bildirdi. Bu borada ayniqsa Boku-Tbilisi-Kars temir yo'lining salohiyati muhimligini ham aytib o'tdi⁵³.

2022-yil noyabr oyida O'zbekistonning Samarqand shahrida "Turkiy sivilizatsiyasining yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari" nomli to'qqizinchi sammit bo'lib o'tdi. Turkiy Kengashning Turkiy Davlatlar Tashkilotiga aylantirilgandan keyingi ushbu birinchi sammitida tashkilotning kelgusi 5 yilga mo'ljallangan strategik harakatlar rejasi qabul qilindi⁵⁴. Mintaqaviy tijorat integratsiyasini ta'minlash maqsadida qator kelishuvlar va protokollar imzolandi. Sammitning muhim qarorlaridan biri Turkiy Sarmoya Fondining tashkil etilishi bo'lib, uning maqsadi a'zo va kuzatuvchi davlatlarning iqtisodlari uchun zarur manbalar bilan ta'minlash hamda yanada integratsiyalashgan Turkiy moliya tizimini o'rnatishga yordam berish o'laroq ko'rsatildi⁵⁵.

Ma'lumki, hamkorlik TDT faoliyatining asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, mazkur yondashuv dastlab 1992–2009-yillarda o'tkazilgan Turkiy tilli davlatlar rahbarlari sammitlarida, keyinchalik esa 2009-yilda Turkiy kengash tashkil etilganidan so'ng qabul qilingan hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Shu nuqtayi nazardan, 2021-yil noyabr oyida tashkilot nomining Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) sifatida o'zgartirilishini faqatgina tashkiliy-nominal o'zgarish sifatida baholash maqsadga muvofiq emas. Mazkur o'zgarish tashkilotning institutsional rivojlanishi, faoliyat yo'nalishlarining kengayishi hamda turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichga ko'tarilishini ifodalovchi muhim jarayon sifatida baholanishi mumkin⁵⁶.

Tashkilot faoliyatiga nisbatan ijobiy yondashuvlar, avvalo, uning turkiy xalqlar o'rtasidagi madaniy, lingvistik va tarixiy aloqalarni rivojlantirish, umumiylik va birdamlik tuyg'ularini mustahkamlash hamda "Turkiy dunyo" doirasidagi ko'p

⁵¹ Sobirov J., 2020, Participation of Uzbekistan in the cooperation Council of Turkic speaking states 8th International Scientific and Practical Conference December 26, 2020 3 (Inter Conf) p.726–729.

⁵² Maharramov, S. 2021, Econometric assessment of Azerbaijan's logistics capabilities in terms of relations with Turkic-speaking states. Economic Herald of Donbass. [https://doi.org/10.12958/1817-3772-2021-4\(66\)-45-52](https://doi.org/10.12958/1817-3772-2021-4(66)-45-52)

⁵³ Об участии Республики Узбекистан в Саммите тюркоязычных государств.

<https://www.uzbekistan.org.ua/ru/uzbekistan/publikatsii/5296-ob-uchastii-respubliki-uzbekistan-v-sammite-tyurkoyazychnykh-gosudarstv.html>

⁵⁴ Türk Devletleri Teşkilatı Dokuzuncu Zirvesi Semerkant'ta gerçekleştirildi

https://turkicstates.org/tr/haberler/turk-devletleri-teskilati-dokuzuncu-zirvesi-semerkantta-gerceklestirildi_2678

⁵⁵ "Türk Devletleri Teşkilatı Dokuzuncu Zirvesi Semerkant Bildirisi",

<https://www.turkkon.org/assets/pdf/haberler/semerkant-bildirisi-2679-164.pdf>

⁵⁶ Erkiner H. H. & Eray, İ. (2022). Uluslararası hukuk bakımından bir uluslararası örgüt olarak Türk Devletleri teşkilatı. Güvenlik Stratejileri Dergisi, TDT Özel Sayısı, 217-250.

tomonlama hamkorlikni institutsional jihatdan muvofiqlashtirishga xizmat qilayotganini ta’kidlaydi. Shuningdek, TDT a’zo davlatlar jamiyatlari o’rtasida umumiy madaniy-tarixiy meros va o’ziga xoslikni anglashni kuchaytiruvchi, davlatlararo muloqot va hamkorlik uchun muhim institutsional platforma sifatida ham baholanadi.

Masalaning tarixiy retrospektiv ko’lamiga doir turkiyalik tadqiqotchi Emre Aydilek, turklar Hun va Ko’kturk davlatlaridan beri qardoshlik munosabatlari e’tiqod, madaniyat va urf-odatlariga asoslangan yagona xalqning avlodlari ekanligiga ahamiyat qaratishni ta’kidlaydi⁵⁷. Ular arablar, mo’g’ullar va ruslar hukmronligi ostida ham o’zlarining ontologik qadriyatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo’ldilar⁵⁸. Tarix davomida tashkil topgan turk davlatlarining aksariyati dunyoning turli burchaklarida yashayotgan boshqa turk jamoalari bilan birlashish idealini ko’zlagan deydi tadqiqotchi. Uning fikricha, antropologik topilmalardan olingan jismoniy materiallar va matnlarda birlashgan va kuchli turk birligi ideallashtirilganiga juda ko’p misollar mavjud⁵⁹.

Shunga yaqin yondashuvni ilgari surgan o’zbek tadqiqotchisi M. Mustafoyev ham TDT faoliyatini a’zo davlatlarning umumiy sivilizatsion makon va tarixiy-madaniy mushtaraklik asosida hamkorlik shakllarini rivojlantirish jarayoni sifatida talqin etadi. Tadqiqotchi mazkur tashkilot faoliyatini amerikalik siyosatshunos Samuel P. Huntington tomonidan ilgari surilgan sivilizatsiyalar konsepsiyasi doirasida o’rganish maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi⁶⁰. Huntington nazariyasiga ko’ra, “sovuq urush” tugaganidan so’ng davlatlar umumiy madaniyat unsurlari mushtarak bo’lgan davlatlar bilan ittifoq tuzishga intilishgan va bu davlatlarning siyosatchilari va jamoat arboblari til, din va o’zaro qadriyatlardagi yaqinlik va qarindoshlik munosabatlari tufayli aynan bir-biriga ishonishga moyil bo’lgan⁶¹. Shu bois Mustafoyev fikricha, Huntington ilgari surgan g’oya, olimning o’zi ta’kidlaganidek, hecham yangilik emas, chunki miloddan avvalgi 5-asrda ham Sparta va Afina qo’l ostidagi yunon shahar-davlatlarini birlashtirgan Peloponnes ittifoqining shakllanishida ham etnik, ijtimoiy va madaniy umumiylik muhim rol o’ynagan⁶².

O’z o’rnida qirg’iz tadqiqotchisi Dinara Appasova ham TDT mushtarak til, madaniyat va birdamlik asosida tuzilgan bo’lsa-da, globallashtirib borayotgan dunyoda davlatlar asosan umumiy manfaat atrofida birlashayotganini ta’kidlaydi⁶³. Buning yaqqol isboti o’laroq tadqiqotchi sivilizatsion jihatdan “ushbu asrning dilemmasi” deb nomlangan Rossiya va Ukraina o’rtasidagi urushni bugungi kunda slavyan

⁵⁷ Emre Aydilek Türk Devletleri Teşkilatının Siyasi ve Ekonomik Potansiyeli Uluslararası Yönetim Akademisi Dergisi Yıl: 2022, Cilt: 5, Sayı: 3, ss.716-728

⁵⁸ Mustofaev Murodjon (2022), “The Organization of Turkic States: A New Approach to Global and Regional Challenges”, *Perceptions: Journal of International Affairs*, S.27(1), pp.105-120

⁵⁹ Emre Aydilek Türk Devletleri Teşkilatının Siyasi ve Ekonomik Potansiyeli Uluslararası Yönetim Akademisi Dergisi Yıl: 2022, Cilt: 5, Sayı: 3, s.718

⁶⁰ Murodjon Mustofaev, *The Organization of Turkic States: A New Approach to Global and Regional Challenges*. PERCEPTIONS/Spring Summer 2022, Volume XXVII, Number 1, pp.105-120.

⁶¹ Samuel P. Huntington, *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*, New York: Simon and Schuster, 1996.

⁶² Paul Cartledge, “The Origins and Organization of the Peloponnesian League,” in Michael Whitby (ed.), *Sparta*, Edinburgh: Edinburgh University Press, 2002, p. 223.

⁶³ Appasova D. (2023). Potencial Organizacii Türskix Gosudarstv v obespechenii bezopasnosti Türskogo mira. *Manas Sosyal Araştırmalar Dergisi*, 12(2), 716-732. doi:10.33206/mjss.1251847

dunyoosining parchalanishiga olib kelganligini aytib o‘tadi. Bunday sharoitda TDT boshchiligidagi turkiy dunyoning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hamkorlik doirasida birlashishini mintaqaviy barqarorlik nuqtayi nazaridan e‘tiborga molik voqealardan biri deb hisoblaydi⁶⁴.

Aytish joizki, zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida umumiy madaniy, lingvistik va tarixiy yaqinlik hamda qarindoshlik rishtalariga ega xalqlar o‘rtasidagi aloqalar xalqaro tashkilotlarning shakllanishini belgilovchi yagona yoki asosiy omil sifatida qaralmaydi. Shu nuqtai nazardan, ayrim rus tadqiqotchilari TDTning tashkil etilishini, avvalo, aholisi asosan turkiy xalqlardan tarkib topgan davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish va o‘zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan institutsional mexanizm sifatida baholaydilar. Ular, shuningdek, tashkilotning Yevroosiyo makonidagi faoliyatida Turkiyaning yetakchi va faol rol o‘ynayotganiga alohida e‘tibor qaratadilar. Mazkur tadqiqotchilarning ayrimlari TDTni umumiy etnik-madaniy va lingvistik yaqinlikka asoslangan davlatlararo hamkorlikning o‘ziga xos shakli sifatida talqin etib, uni slavyan, german, ispan, portugal, fors va boshqa madaniy-lingvistik guruhlariga mansub xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik shakllari bilan qiyosiy jihatdan tahlil qiladilar⁶⁵.

Shu bilan birga, xalqaro munosabatlar tizimidoirasida ko‘plab aynan Turkiya-markazli tadqiqotchilar TDTni asosan sivilizatsiyaviy yondashuv va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari doirasida “xayolan insho etiluvchi obyekt” sifatida asoslab, ushbu platformadagi integratsion jarayonlarni akademik doiralarda davlatlar suverenitetini chegaralovchi neofunksionalizm o‘laroq yondashuvi orqali tahlil qiladilar⁶⁶.

Xususan, TDTning o‘ziga xosligi ijtimoiy konstruktivistik yondashuvga murojaat qilish orqali baholanadi. Ushbu paradigmaning asoschisi, amerikalik olim Alexander Wendtning ta’kidlashicha, realizm va liberalizm kabi davlat-markazli xalqaro munosabatlar nazariyalari tarkibiy o‘zgarishlarni tushuntira olmaydi va buning o‘rniga u subyektlararo dinamaning muhimligini ilgari suradi. Ijtimoiy konstruktivistlarning fikriga ko‘ra, xalqaro tizim normalar, qoidalar va tamoyillar bilan to‘la ijtimoiy tuzilma sifatida ishlaydi. Shu munosabat bilan, subyektiv ma’noga ega bo‘lgan davlatlar o‘rtasidagi do‘stlik yoki dushmanlik yaratilishi va qayta tiklanishi mumkin bo‘ladi. Davlatlarning manfaatlari va o‘ziga xosligini umumiy bilim, tushunish, o‘zaro bog‘liqlik va jamoaviy ong yordamida qayta qurish mumkinligi aytiladi⁶⁷.

Boshqacha aytganda, ijtimoiy konstruktivizm nazariyasi TDT singari xalqaro tashkilotlarning normalarning paydo bo‘lishi, normalarni yaratish va standartlarni belgilashdagi rolini yuksaltiradi. Xalqaro tashkilotlar boshlagan yangi normalar

⁶⁴ Dinara Appasova, The Significance of the Organization of Turkic States for the Turkic World, Journal of the Young Researcher, January 2024, https://www.researchgate.net/publication/380453494_The_significance_of_the_organization_of_the_Turkic_states_for_the_Turkic_world

⁶⁵ Живалов В.Н., Чимириш Е.С., Алиев Т.М. Организация тюркских государств: перспективы развития и риски для Евразийского экономического союза // Современная мировая экономика. Том 1. 2023. № 2 (2).

⁶⁶ Demircan N. (2022). Turks in the Changing World Order: The Organization of Turkic States. The Defence Horizon Journal. <https://nbn-resolving.org/urn:nbn:de:0168-ssoar-81345-8>

⁶⁷ Wendt Alexander, Social Theory of International Politics, Cambridge Studies in International Relations, 2013. p.67 <https://www.guillaumenicaise.com/wp-content/uploads/2013/10/Wendt-Social-Theory-of-International-Politics.pdf>

davlatlarning xatti-harakatlarini shakllantirishi, o'zgartirishi va tartibga solishi mumkin degan tushuncha ilgari suriladi. Amerikalik konstruktivist olimi Martha Finnemore ta'kidlaganidek, "xalqaro tashkilotlar o'qituvchi sifatida harakat qilishlari mumkin"⁶⁸. Ular davlatlarni hamkorlikdagi xatti-harakatlarni qabul qilishga, tashkilot madaniyatini qabul qilishga va tashkilot qadriyatlarini o'zlashtirishga ko'ndirishlari mumkin⁶⁹.

Umuman olganda, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy munosabatlarini rivojlantirishda TDT madaniy, transport va iqtisodiy sohalarida hamkorlik platformasi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy tahdidlar va xavflarga qarshi mudofaa salohiyati va sanoatini takomillashtirishda Turkiyaning imkoniyatlari va tajribalaridan keng foydalanish imkoniyatlarini taqdim qiladi. Markaziy Osiyo davlatlari TDT orqali jahon siyosatining muhim va muvozanatli ishtirokchisiga aylanadi, shuningdek, Markaziy Osiyo-Kavkaz-Turkiya (orqali Bolqon, YI, O'rta Yer dengizi) magistral yo'lini tashkil etish bilan Yevroosiyo kontinentida Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni bir-biriga bog'laydigan geosiyosiy va geostrategik makonga aylanadi. Bu Markaziy Osiyo davlatlarini nafaqat savdo-tijorat nuqtasida foyda va nazoratni ta'minlashiga, balki umumbashariy sivilizatsion rivojlanishga va global muammolarni hal qilishga o'z hissalarini qo'shadigan kuch markazlariga aylanib borishini ta'minlaydi. Qisqacha qilib aytganda, Markaziy Osiyo davlatlari uchun TDT geosiyosiy va geoiqtisodiy imkoniyatlar taqdim qiladi va global o'zgarishlarda milliy madaniyatlari va qadriyatlarini saqlab qolish hamda kelajak avlodga yetkazishda institutsional vosita bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

"Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro hamkorligida Turkiy Davlatlar Tashkilotining ta'siri va istiqbollari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishidan quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, xalqaro tashkilotlar zamonaviy jahon siyosatining muhim institutsional subyektlaridan biri sifatida davlatlararo munosabatlarning rivojlanishi va xalqaro siyosiy jarayonlarning shakllanishiga tobora sezilarli ta'sir ko'rsatib bormoqda. Xalqaro tashkilotlarning institutsional evolyutsiyasi va faoliyat yo'nalishlarining kengayishi bilan bir qatorda, ularning mohiyati, funksiyalari va xalqaro munosabatlardagi o'rnini izohlovchi nazariy yondashuvlar ham takomillashib, mazmunan boyib bormoqda. Xususan, realizm, neorealizm, liberalizm, neoliberal institutsionalizm, funksionalizm, o'zaro bog'liqlik (interdependence), "xavfsizlik hamjamiyati" (security community), konstruktivizm, neofunksionalizm hamda supranatsionalizm (supranationality) kabi nazariy va konseptual yondashuvlar xalqaro tashkilotlarning vujudga kelishi, institutsional rivojlanishi, maqsad va vazifalari, davlatlar tashqi siyosatiga ta'siri hamda xalqaro siyosatdagi o'rnini va

⁶⁸ Martha Finnemore, International Organizations as Teachers of Norms: The United Nations Educational, Scientific, and Cultural Organization and Science Policy, International Organization, The MIT Press, Vol. 47, No. 4 (Autumn, 1993), pp. 565-597.

⁶⁹ Michael Barnett, Martha Finnemore, Rules of the World: International Organizations in Global Politics, Cornell University Press, 2004, p.240 <https://www.jstor.org/stable/10.7591/j.ctt7z7mx>

ahamiyatini turlicha talqin etadi. Mazkur nazariy yondashuvlarni tizimli ravishda o'rganish xalqaro tashkilotlarning tabiati, institutsional imkoniyatlari, funksional xususiyatlari va siyosiy ahamiyatini chuqurroq anglash, shuningdek, ularning davlatlararo munosabatlarga ta'sirini xolis va kompleks tahlil qilish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchidan, xalqaro tashkilotlarning vujudga kelishi va institutsional shakllanishi muayyan siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, xavfsizlik va tarixiy shart-sharoitlar, mavjud imkoniyatlar hamda cheklovlar, shuningdek, qisqa, o'rta va uzoq muddatli strategik manfaatlar bilan chambarchas bog'liq. Turkiy Davlatlar Tashkilotining shakllanishi va rivojlanishi ham mazkur omillarning o'zaro ta'siri natijasida kechgan bo'lib, tashkilot o'zining institutsional evolyutsiyasi davomida bir necha muhim bosqichlarni bosib o'tdi. Tashkilotning shakllanishi va faoliyatining turli bosqichlarida a'zo davlatlarning manfaatlar, siyosiy pozitsiyalari va yondashuvlari o'rtasidagi farqlar hamda ayrim masalalarga doir qarama-qarshiliklarning mavjudligi uning institutsional rivojlanish jarayonining muhim jihatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, tashkilotning faoliyat yuritgan davrida erishgan institutsional va amaliy natijalarini ham e'tirof etish lozim. TDT doirasida o'tkazilgan uchrashuvlar, davlat rahbarlari sammitlari, qabul qilingan deklaratsiyalar va kelishuvlar tashkilotning ustuvor yo'nalishlari, strategik maqsadlari hamda rivojlanish tendensiyalarini aniqlash imkonini beradi. TDTning shakllanishi va institutsional rivojlanishi Markaziy Osiyo davlatlari bilan chambarchas bog'liq ekan, uning kelgusidagi faoliyati ham mintaqadagi siyosiy, iqtisodiy va geosiyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Uchinchidan, Markaziy Osiyo davlatlarida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning o'xshashligi, davlat va jamiyat rivojlanishining istiqbollarga doir qarashlarning muayyan darajada yaqinligi, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq umumiy manfaatlarning mavjudligi mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga intilishning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda integratsiya jarayonlarining rivojlanishiga ichki va tashqi omillarning murakkab o'zaro ta'siri sezilarli darajada ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Xususan, mintaqadagi tashqi geosiyosiy kuchlarning turli va ba'zan qarama-qarshi manfaatlar, davlatlarning siyosiy va iqtisodiy yondashuvlaridagi farqlar, shuningdek, mavjud ikki va ko'p tomonlama muammolar mintaqaviy integratsiya jarayonlarini murakkablashtiruvchi omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq mazkur cheklovlarga qaramay, Markaziy Osiyo davlatlarining o'zaro diplomatik munosabatlarni barqaror rivojlantirish va mintaqaviy muloqotni izchil davom ettirishga intilishi kuzatilmoqda. Bu esa davlatlarning umumiy manfaatlar, mushtarak rivojlanish istiqbollari hamda umumiy xavf va tahdidlarga nisbatan muvofiqlashtirilgan yondashuvlarni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji tobora kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

To'rtinchidan, Turkiy Davlatlar Tashkiloti mohiyatan umumiy til, o'ziga xoslik, madaniyat va geografiya kabi qadriyatlarga asoslangan xalqaro tashkilotdir. Shu nuqtayi nazardan, TDT nafaqat mavjud xavfsizlik muammolarini hal qilish, balki turkiy dunyoda birdamlik va iqtisodiy hamkorlik uchun muhim salohiyatdir. Bu

salohiyatning ro'yobga chiqishi turkiy dunyoni xalqaro tizim doirasidagi mintaqaviy rivojlanish va barqarorlikni ta'minlash va xalqaro maydonda faol va samarali harakat qilishiga hamda mintaqadagi super kuchlar raqobatining salbiy oqibatlarini ham minimallashtirish imkonini beradi.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari mintaqaviy munosabatlarini rivojlantirishda TDT madaniy, transport va iqtisodiy sohalarida hamkorlik platformasi bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy tahdidlar va xavflarga qarshi mudofaa salohiyati va sanoatini takomillashtirishda Turkiyaning imkoniyatlari va tajribalaridan keng foydalanish imkoniyatlarini taqdim qiladi. Markaziy Osiyo davlatlari TDT orqali jahon siyosatining muhim va muvozanatli ishtirokchisiga aylanadi, shuningdek, Markaziy Osiyo-Kavkaz-Turkiya (orqali Bolqon, YI, O'rta Yer dengizi) magistral yo'lini tashkil etish bilan Yevroosiyo kontinentida Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni bir-biriga bog'laydigan geosiyosiy va geostrategik makonga aylanadi. Bu Markaziy Osiyo davlatlarini nafaqat savdo-tijorat nuqtasida foyda va nazoratni ta'minlashiga, balki umumbashariy sivilizatsion rivojlanishga va global muammolarni hal qilishga o'z hissalarini qo'shadigan kuch markazlariga aylanib borishini ta'minlaydi. Qisqacha qilib aytganda, Markaziy Osiyo davlatlari uchun TDT geosiyosiy va geoiqtisodiy imkoniyatlar taqdim qiladi va global o'zgarishlarda milliy madaniyatlari va qadriyatlarini saqlab qolish hamda kelajak avlodga yetkazishda institutsional vosita bo'lib xizmat qiladi.

Oltinchidan, Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida shakllanayotgan ko'p darajali hamkorlik tizimi (davlatlararo, hukumatlararo va institutsional darajalar) Markaziy Osiyoda geosiyosiy va geoiqtisodiy raqobatni muvozanatlashtirishga xizmat qilmoqda. Natijada, mintqa davlatlari global kuch markazlari o'rtasida passiv obyekt emas, balki faol subyekt sifatida o'z manfaatlarini ilgari surish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni asoslaydiki, Turkiy Davlatlar Tashkiloti Markaziy Osiyoda "ko'p vektorli tashqi siyosat"ni qo'llab-quvvatlovchi muhim platformaga aylanmoqda. Bu esa mintqa davlatlariga bir vaqtning o'zida turli integratsion tuzilmalar bilan hamkorlik qilish orqali strategik muvozanatni saqlash va tashqi siyosiy risklarni minimallashtirish imkonini bermoqda.

Yettinchidan, O'zbekiston tashqi siyosatida Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) doirasidagi mintaqaviy hamkorlik strategiyalarini takomillashtirish uchun siyosiy, iqtisodiy, transport-logistika, energetika, madaniy-gumanitar, qishloq xo'jaligi, sanoat va xavfsizlik sohalarida muhim imkoniyatlar mavjud. Birinchidan, umumiy tarixiy-madaniy va lingvistik yaqinlik O'zbekistonning TDT davlatlari bilan gumanitar aloqalarini yanada rivojlantirish, xalqlar o'rtasidagi o'zaro anglashuvni mustahkamlash, madaniy diplomatiya va turizm salohiyatini oshirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, transport-logistika sohasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish O'zbekistonning mintaqaviy va xalqaro transport koridorlariga integratsiyalashuvini jadallashtirish, eksport-import operatsiyalarining geografiyasini kengaytirish hamda mamlakatning tranzit va logistika salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini oshiradi. Uchinchidan, mudofaa va xavfsizlik sohasidagi hamkorlik TDT davlatlarining mudofaa salohiyatini rivojlantirish, harbiy-texnik hamkorlikni kengaytirish hamda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni o'zlashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratishi mumkin.

Xususan, uchuvchisiz uchish apparatlari, havo hujumidan mudofaa va boshqa zamonaviy mudofaa texnologiyalari bo'yicha tajriba almashish O'zbekistonning milliy xavfsizlik va mudofaa salohiyatini takomillashtirish nuqtayi nazaridan istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. To'rtinchidan, energetika sohasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish, energetik resurslarni tashish va diversifikatsiya qilish bo'yicha qo'shma loyihalarni amalga oshirish TDT makonining mintaqaviy va xalqaro energetika tizimidagi ahamiyatini oshirishi mumkin. Beshinchidan, qishloq xo'jaligi, sanoat kooperatsiyasi va ishlab chiqarish sohalaridagi hamkorlik O'zbekistonning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini kengaytirish, qo'shilgan qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini kuchaytirish hamda mintaqaviy iqtisodiy aloqalarda mamlakatning o'rnini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Shu jihatdan, TDT doirasidagi ko'p tarmoqli hamkorlik O'zbekiston uchun nafaqat mavjud iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlardan foydalanish, balki yangi rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirishning muhim institutsional mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotning asosiy xulosalaridan kelib chiqib, quyidagi **taklif** va **tavsiyalarni** ilgari surishimiz mumkin:

- TDTga a'zo davlatlar universitetlari o'rtasida "Orxun almashinuvi" dasturi doirasida akademik hamkorlikni osonlashtirish uchun turkiy tillar o'rtasida ilmiy va adabiy asarlarni real vaqt rejimida tarjima qilish uchun sun'iy intellektdan foydalanadigan umumiy platforma yaratish va raqamli kutubxonani ishga tushirish;

- Ilmiy sohada arab-fors dunyosidagi turkiy olimlarning faoliyatiga doir nashrlarni ko'paytirish, jumladan, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va Mahmud az-Zamahshariy kabi buyuk olim mutafakkirlarimiz haqidagi va ularning yozgan qo'lyozma va asarlarni barcha turkiy tillarda nashr etish. Shuningdek, TDT doirasida Abu Ali Ibn Sino merosiga bag'ishlab, uning yashab va ijod qilgan Ma'mun Akademiyasida, hozirgi Xiva shahrida tavallud kuniga bag'ishlangan "Turkiy dunyoning qomusiy olimlari" mavzusida yirik xalqaro anjuman tashkillashtirish va O'zbekiston Fanlar Akademiyasi boshchiligida TDTga a'zo davlatlarining ilmiy-akademik soha vakillari bilan birgalikda anjuman natijalaridan ko'p jildli nashr chiqarish;

- Iqtisodiy va transport-logistika sohasida "Turkiy dunyo"ni Xitoy va Yevropa o'rtasidagi muhim tranzit-logistika makoniga aylantirish maqsadida bojxona jarayonlarini raqamlashtirish, yagona raqamli ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish asosida TDTga a'zo davlatlar hududidan o'tuvchi yuklar uchun yagona elektron identifikatsiya tizimini, jumladan, QR-kod asosidagi "Green Corridors" ("Yashil yo'laklar") mexanizmini joriy etish mumkin. Mazkur mexanizm bojxona va tranzit jarayonlarida hujjat aylanishini qisqartirish, ma'lumotlar almashinuvini tezlashtirish, yuklarning harakatini monitoring qilish va logistika operatsiyalarining shaffofligini oshirishga xizmat qilishi mumkin;

- TDT doirasida ekologik muammolarni muvofiqlashtirilgan holda hal etish maqsadida tabiat va ekologiya masalalari bo'yicha maslahat kengashi hamda atrof-muhitni muhofaza qilish jamg'armasini tashkil etish istiqbolli institutsional mexanizmlardan biri bo'lishi mumkin. Mazkur tuzilmalar Markaziy Osiyoda suv

resurslarini oqilona va barqaror boshqarish, Orol va Kaspiy dengizlari ekotizimlarining qisqarishi hamda boshqa transchegaraviy ekologik muammolarni o'rganish va ularning yechimlarini ishlab chiqishda ilmiy tadqiqotlar, monitoring ma'lumotlari va dalillarga asoslangan tahlillardan foydalanishni muvofiqlashtirishi mumkin. Bunday mexanizm TDT davlatlari o'rtasida ekologik axborot almashinuvi, ilmiy-texnik hamkorlik va qo'shma loyihalarni rivojlantirishga ham xizmat qilishi mumkin;

– Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro imijini mustahkamlash uchun Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida yagona “soft power” strategiyasini ishlab chiqish zarur. Bu strategiya madaniyat, ta'lim, turizm va axborot diplomatiyasini uyg'unlashtirib, mintaqaning ijobiy qiyofasini global miqyosda targ'ib qiladi;

– Transmilliy xavfsizlik tahdidlariga qarshi samarali choralar ko'rish uchun Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasida tashqi siyosat va xavfsizlik masalalarini integratsiyalashgan holda ko'rib chiquvchi muntazam “strategik dialog” formatini joriy etish lozim. Bu terrorizm, ekstremizm, noqonuniy migratsiya va kiberxavfsizlik kabi tahdidlarga nisbatan muvofiqlashtirilgan siyosat yuritish imkonini beradi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasida yo'lga qo'yilgan 4+4 muloqot formatini Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlik kuchlari o'rtasida ham tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Ss.05.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

АБДУЛЛАЕВ ЖАВЛОН НАРЗУЛЛАЕВИЧ

**ВЛИЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ТЮРКСКИХ
ГОСУДАРСТВ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ
АЗИИ**

**23.00.04 - Международные отношения, политические проблемы мирового
и регионального развития**

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по
политическим наукам**

Ташкент - 2026

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по политическим
наукам**

**Content of the dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Political Science**

Abdullayev Javlon Narzullayevich

Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zaro hamkorligida Turkiy Davlatlar
Tashkilotining ta’siri va istiqbollari 3

Абдуллаев Жавлон Нарзуллаевич

Влияние и перспективы Организации тюркских государств в
сотрудничестве государств Центральной Азии 30

Abdullaev Javlon Narzullaevich

The impact and prospects of the Organization of Turkic States in the
cooperation of Central Asian countries..... 65

E’lon qilingan ishlari 69

Список опубликованных работ 69

List of published works..... 69

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ВОСТОКОВЕДЕНИЯ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/2025.27.12.Ss.05.02 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ВОСТОКОВЕДЕНИЯ**

АБДУЛЛАЕВ ЖАВЛОН НАРЗУЛЛАЕВИЧ

**ВЛИЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ ОРГАНИЗАЦИИ ТЮРКСКИХ
ГОСУДАРСТВ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ
АЗИИ**

**23.00.04 - Международные отношения, политические проблемы мирового
и регионального развития**

АВТОРЕФЕРАТ

**диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по
политическим наукам**

Ташкент - 2026

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по политическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии При Академии наук Республики Узбекистан под номером B2025.3.PhD/Ss 623.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете востоковедения.

Аннотация диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском и английском) на веб-сайте Научного совета (www.tsuos.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Сайфуллаев Дурбек Бахтиярович**
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Жураев Сайфиддин Ахматович**
доктор политических наук, профессор

Найимов Отабек Мардонович
доктор философии (PhD) по политическим наукам

Ведущая организация: **Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2026 года в ____ часов на заседании Научного совета DSc.03/2025.27.12.Ss.05.02 при Ташкентском государственном университете востоковедения. (Адрес: 100060, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 20. Тел.: (99871) 233-34-24; факс: (998971) 233-52-24; e-mail: tsuos@info.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета востоковедения. (зарегистрировано под No___). Адрес: 100060, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 20. Тел.: (99871) 233-45-21. факс: (998971) 233-52-24.

Аннотация диссертации разослан «___» _____ 2026 года.

(реестр протокола рассылки No___ от «___» _____ 2026 года).

Султанова Э.С.

И.о. председателя научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор политических наук, профессор

О.И. Алимов

Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD) по политическим наукам, доцент

Ш.А. Ёвкочев

Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней,
доктор политических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В современной мировой политике и системе международных отношений важную роль играют международные организации. Эффективность деятельности международных организаций на мировой политической арене является дискуссионным вопросом, и в академических кругах существуют различные гипотезы и подходы к этой проблеме. Международные организации являются одними из наиболее влиятельных участников международной политики после государств. Благодаря своей независимой позиции в международной политике они оказывают влияние на действия государств в их общих интересах и играют важную роль в определении внешней политики государств, особенно в вопросах экономики и безопасности.

Создание Организации тюркских государств (ОТГ) стало важным изменением в политической, экономической и культурной картине тюркоязычного мира. Сегодня во многих научных исследованиях и экспертных анализах выдвигаются различные научные взгляды и концептуальные подходы, касающиеся роли данной организации в региональной и международной политике, её влияния на межгосударственные отношения, а также её текущей деятельности и направлений будущего развития. По мнению ученых-исследователей и специалистов, наряду с такими негативными подходами, как приоритет интересов отдельного государства (на примере ОТГ - Турции), ограничение суверенной внешней политики национальных государств международными организациями, усиление конкуренции между другими международными организациями и внешними акторами, как и в других международных организациях, существуют также позитивные взгляды на то, что ОТГ играет важную роль в коллективной борьбе с современными глобальными угрозами и вызовами, повышении геополитического и экономического потенциала государств-членов, обеспечении их безопасности и укреплении стабильности.

